



DAVLAT FUQAROLIK XIZMATI SOHASIDA  
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TIZIMINI  
TAKOMILLASHTIRISH

To'liqinova Visola Ulug'bek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi

E-mail: visolatolqinova05@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20520409>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-may 2026 yil

Ma'qullandi: 15-may 2026 yil

Nashr qilindi: 31-may 2026 yil

KEY WORDS

*korruptsiya, davlat fuqarolik xizmati, fosh etuvchilar (whistleblower), manfaatlar to'qnashuvi, moliyaviy shaffoflik, normativ-huquqiy ekspertiza, korruptsiyaga qarshi kurash.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada davlat fuqarolik xizmati sohasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish masalalari xalqaro tajriba asosida tahlil qilinadi. Buyuk Britaniya, Sloveniya, Ruminiya, Qozog'iston, Estoniya, Moldova va boshqa davlatlarning ilg'or amaliyotlari o'rganilgan holda, fosh etuvchilarni himoya qilish, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va normativ-huquqiy hujjatlarni korruptsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi va davlat boshqaruvida yaxlit korruptsiyaga qarshi kurash tizimini shakllantirish yo'llari belgilanadi*

KIRISH

Korruptsiya zamonaviy jamiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga eng jiddiy to'siq bo'lib, ayniqsa davlat fuqarolik xizmati sohasida uning salbiy ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi. Xalqaro shaffoflik tashkiloti (Transparency International) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo mamlakatlarining aksariyati korruptsiya indeksida past ko'rsatkichlarni qayd etmoqda va bu holat davlat institutlariga bo'lgan fuqarolar ishonchini katta darajada zaiflashtirib bormoqda[1].

O'zbekiston Respublikasi ham korruptsiyaga qarshi kurashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deb belgilab, shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi PF-5992-son "O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda 2017-yilda "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunni qabul qildi. Ushbu qonun va keyinchalik chiqarilgan bir qator farmonlar orqali korruptsiyaga qarshi kurashning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. Biroq, huquqiy bazaning mavjudligi o'z-o'zidan korruptsiyani jilovlash uchun yetarli emas — amalda ishlaydigan institutsional mexanizmlar, shaffof moliyaviy boshqaruv va jamoatchilik nazorati ham talab etiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korruptsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC) barcha davlatlarni korruptsiyaning oldini olish, uni jilovlash va bu sohadagi xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha majburiyatlar olishga da'vat etadi[2]. O'zbekiston ushbu konvensiyani

2008-yilda ratifikatsiya qilgan bo'lsada, uning talablarini to'liq bajarishda tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Shu bois xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirib joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi xorij davlatlarning ilg'or amaliyotlari tahlili asosida O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarining tajribasi hamda O'zbekistonning amaldagi huquqiy-institutsional tizimi olingan.

#### ASOSIY QISM

Davlat xizmatchilarining o'z vakolatlarini shaxsiy manfaat yo'lida suiiste'mol qilishi davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiradi, fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchini susaytiradi va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Davlat boshqaruvi nazariyasi nuqtayi nazaridan, korrupsiya "asosiy-agent" muammosining (principal-agent problem) o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, bunda davlat xizmatchisi (agent) fuqarolar va jamiyat (asosiy) manfaatlarini emas, o'z shaxsiy manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadi[3].

Jahon banki tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, korrupsiya mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini o'rtacha 0,5–1,0 foizga pasaytiradi, xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmini qisqartiradi va davlat xizmatlarining sifatini tushiradi[4]. Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O'zbekiston uchun bu ko'rsatkichlar yanada yuqori bo'lishi mumkin, chunki ijtimoiy normalar va an'anaviy munosabatlar tizimida yuqori lavozim egalari bilan munosabatda "sovg'a" va "pora" chegarasi ko'pincha aniq belgilanmagan.

O'zbekiston davlat fuqarolik xizmati tizimida ham korrupsiyaviy xavf omillar mavjud, jumladan, me'yoriy hujjatlarda keng ixtiyoriy vakolatlar, davlat xizmatlari ko'rsatishda shaffoflik yetishmasligi, davlat xizmatchilari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining zaif ekanligi va fosh etuvchilarni muhofaza qiluvchi tizimning to'liq shakllanmaganligi misol bo'ladi[5].

Xalqaro tajribada korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali vositalaridan biri fosh etuvchilarni ya'ni korrupsiya holatlarini ma'lum qilgan shaxslarni mustahkam huquqiy va institutsional himoya bilan ta'minlashdir. Buyuk Britaniyaning 1998-yildagi "Ommaviy manfaatlar haqida xabar berish to'g'risida"gi qonuni (Public Interest Disclosure Act) bu borada dunyodagi eng samarali huquqiy modellardan biri sifatida tan olingan[6].

Ushbu qonunning o'ziga xos jihati shundaki, xabar bergan xodimni asossiz ravishda ishdan bo'shatish yuzasidan isbotlash majburiyati ish beruvchiga yuklatiladi. Bu yondashuv tizimda adolatli muvozanatni ta'minlab, xodimlarni muqarrar diskrimantsiya choralariidan himoya qiladi. Avstriyada esa anonim xabar berish imkoniyati yaratilgan bo'lib, anonim platformalar orqali kelgan murojaatlar ham qonun kuchida ko'rib chiqiladi[6].

Sloveniyada Korrupsiyani oldini olish komissiyasi fosh etuvchilarning shaxsini yashirish va ularni guvohlar himoyasi dasturiga kiritish orqali faol muhofaza qiladi. Komissiyaning onlayn xabar berish platformasi foydalanuvchini bosqichma-bosqich yo'naltiradi ya'ni *avval xabarni to'qqizta oldindan belgilangan toifadan biriga kiritadi, so'ngra voqea tafsilotlarini, joyi va vaqtini, aybdor shaxsga oid ma'lumotlarni kiritishni so'raydi*. Bu yondashuv amaliyotda xabarlarini aniqlashtirish va tezkor tekshirish imkonini beradi[7].

Qozog'istonda joriy etilgan moliyaviy mukofot tizimi korrupsiyani fosh etishga bo'lgan ijtimoiy tayyorgarlikni oshirmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, moddiy rag'batlantirish bilan birga xavfsizlik kafolati ham mavjud bo'lsa, fuqarolar korrupsiyani xabar qilishdan

tortinmaydi. Litvada esa barcha vazirliklar va ularga bo'ysunuvchi idoralar o'z veb-saytlarida korrupsiya bilan bog'liq murojaat tartibi haqida ma'lumot joylashtirishga majbur[8].

O'zbekiston uchun bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, faqat xabar berish mexanizmini yaratish yetarli emas — himoya kafolatlari, jarayon natijalari va xabar bergan shaxslarga nisbatan adovatning oldini oluvchi kuchli mexanizmlar ham zarur. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan.

Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarida olib borilgan xalqaro tadqiqotlar davlat moliyaviy boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurashda axborot texnologiyalarining (AT) qo'llanilishini asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatmoqda[9]. Raqamli vositalarning muhim ustunligi shundaki, ular nazorat organlariga yoki oddiy fuqarolarga katta hajmdagi ma'lumotlar ichida yashiringan shubhali aloqalar yoki operatsiyalarni avtomatik tarzda aniqlash imkonini beradi.

Estoniya 2004–2014 yillar davomidagi barcha mahalliy hokimiyatlarning buxgalteriya ma'lumotlarini onlayn tarzda ochiq e'lon qildi. Ushbu resursga jamoatchilik cheklovlarisiz kirishi, ma'lumotlarni ko'rish, yuklab olish, solishtirishi va tahlil qilishi mumkin. Fuqarolar o'z soliqlari qanday maqsadlarga sarflanayotganini ko'rishlari, turli mahalliy hokimiyatlar faoliyatini qiyosiy tahlil qilishlari va moliyaviy oqimlarning mantig'ini tushunishlari mumkin. Sloveniyaning "Supervizor" nomli veb-illovasi davlat xarajatlari, xususan davlat xaridlari bo'yicha barcha tranzaksiyalarni real vaqt rejimida kuzatib boradi. Sloveniya Korrupsiyaga qarshi komissiyasining ta'kidlashicha, jurnalistlar va tergovchilar bu vositani ko'p hollarda shubhali bitimlarni tekshirish uchun muvaffaqiyatli qo'llaydilar. Bu ilova eng yirik mablag' oluvchilarni, yuridik shaxslar o'rtasidagi aloqalarni, tranzaksiya sanasi va summasini, pul o'tkazmalarining maqsadini ko'rsatadi. Gruziyada 2010-yilda Moliya vazirligi tomonidan Elektron Budget Dasturi joriy etildi. Bu dastur barcha budjet tashkilotlariga byudjetlarini elektron tarzda rejalashtirishga imkon berib, jarayonni soddalashtirdi va avtomatlashtirdi. Qozog'istonda esa 2013-yildan boshlab "Moliyaviy nazorat xavflarni boshqarish tizimi" tatbiq etildi bo'lib, u budjet ijrosi va davlat xaridlarining qanday amalga oshirilayotganini baholash orqali moliyaviy nazorat samaradorligini oshirmoqda.

O'zbekiston uchun bu tajriba shuni anglatadiki, "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" (my.gov.uz) va "Ochiq budjet" kabi mavjud platformalarni yanada rivojlantirish, tranzaksiya ma'lumotlarini real vaqtda ommaviy kirishga ochish va jamoatchilik monitoringini institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash zarur.

Tadqiqot qamrab olgan barcha davlatlarda davlat xizmatchilarining manfaatlar to'qnashuviga qarshi siyosatlar mavjud. Biroq umumiy yondashuvning muvaffaqiyatli amalga oshirilganini tasdiqlovchi dalillarni topish qiyin[10]. Bunga manfaatlar to'qnashuvi ko'pincha yashirin tarzda, rasmiy me'yoriy tuzilmalarning ko'z ilg'amas joylarida namoyon bo'lishi sabab bo'lmoqda.

Albaniyaning "Davlat funksiyalarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish to'g'risida"gi qonuni e'tiborga sazovordir. Qonun holatga qarab va davriy deklaratsiya qilish tartiblarini batafsil belgilaydi. Har bir mansabdor shaxs shaxsiy manfaatlari bo'yicha o'ziga ma'lum bo'lgan, alohida holatlarda manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni oldindan mustaqil deklaratsiya qilishi shart. Bundan tashqari, boshqa mansabdor shaxs yoki davlat organi manfaatlar to'qnashuvi haqida ma'lumotga ega bo'lsa, bu haqda xabar berish majburiyati yuklanadi[11].

Ruminiyaning Milliy Halollik Agentligi (ANI) tomonidan 2017-yildan boshqariluvchi PREVENT tizimi[12] davlat xaridlarida manfaatlar to'qnashuvini shartnoma imzolanmasidan oldin avtomatik tarzda aniqlashga mo'ljallangan. Jarayon avval tender e'lon qilinadi,

buyurtmachi idora va ishtirokchilar raqamli Yaxlitlik shaklini to'ldiradi. PREVENT uchta ma'lumotlar bazasini ya'ni mulk deklaratsiyalari, ANI registri va tijorat reestrini avtomatik solishtiradi. Shubhali bog'liqlik aniqlansa, idoraga darhol ogohlantirish yuboriladi[13].

Ogohlantiruvga javob sifatida idora komissiya a'zosini almashtirishi yoki nomzodni diskvalifikatsiya qilishi shart. Javob berilmasa, ANI mustaqil tergov boshlaydi hamda aybdor vakil uch yil davomida davlat xaridlarida qaror qabul qilishdan chetlatiladi[14].

Estoniyada murakkab manfaatlar to'qnashuvi normalarini davlat xizmatchilari tomonidan tushunishini osonlashtirish uchun 13 ta real holat asosida ishlab chiqilgan amaliy qo'llanma yaratilgan. Masalan: "Shahar kengashi raisi onasi boshqaruv a'zosi bo'lgan notijorat tashkilotga grant ajratish bo'yicha qaror tayyorlashda qatnashishi mumkinmi?" — to'g'ri javob: yo'q. Bunday qo'llanmalar yuzma-yuz treninglar bilan birga tarqatiladi[15].

O'zbekistonda ham davlat xizmatchilari uchun manfaatlar to'qnashuviga oid amaliy qo'llanmalar, case-study asosidagi o'quv materiallar ishlab chiqish va ularni muntazam treninglar bilan boyitish tizimini yo'lga qo'yish zarur. Shuningdek, manfaatlar to'qnashuvini faqat ex-post (voqeadan keyingi) emas, balki ex-ante (oldindan) aniqlash va oldini olish mexanizmlari joriy etilishi kerak.

Normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi (anticorruption assessment of laws) bu yangi qonun loyihalarida korrupsiyaviy bo'shliqlarni aniqlash va ularni qonun kuchga kirmasdan oldin bartaraf etishga qaratilgan tizimli mexanizm hisoblanadi. Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O'zbekiston, Armaniston, Qirg'iz Respublikasi, Moldova va Litvada bunday ekspertiza qonun yo'li bilan majburiy deb belgilangan.

Moldova 2006-yildan beri qonunchilikni korrupsiyaga qarshi baholash bo'yicha keng qamrovli tizimni joriy etgan. Bu vazifani bajarish Moldovaning Milliy korrupsiyaga qarshi kurashish markazi (NAC) zimmasiga yuklangan. NAC metodologiyani fuqarolik jamiyati tashkiloti — Korrupsiyani tahlil qilish va oldini olish markazi (CAPC) bilan hamkorlikda ishlab chiqqan. Bu hamkorlik nafaqat metodologiyaning aniqligini oshirgan, balki baholash jarayonining mustaqilligini ham ta'minlagan.

2014-yilning birinchi yarmida NAC 338 ta qonun loyihasini baholadi. Baholangan loyihalarning 35%ida yetarli asos yo'q, 7%ida qaror qabul qilish jarayonida ochiqlik yetishmagan ekani aniqlandi. NAC eng ko'p aniqlagan xavflar: haddan tashqari ma'muriy diskretsia — 37%; ziddiyatli qoidalar — 22%; noaniq tilda ifodalangan normalar — 14%. NAC tavsiyalarining 68,5% qabul qilingan — bu juda yuqori natija hisoblanadi[16].

Armanistonda esa "me'yoriy-huquqiy gilyotin" vositasi 2011-yildan qo'llanilmoqda[17]. Bu vosita mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qonuniyligi, foydalanuvchiga qulayligi va zarurligini tahlil qilib, eskirgan yoki ortiqcha hujjatlarni aniqlaydi. Shundan so'ng ularni bekor qilish, birlashtirish yoki almashtirish bo'yicha tegishli organlar tavsiyalar beradi.

O'zbekiston uchun ushbu tajriba shuni ko'rsatadiki, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Adliya vazirligi o'rtasida yaxlit metodologik hamkorlik o'rnatish, fuqarolik jamiyati tashkilotlarini qonunchilikni korrupsiyaga qarshi baholash jarayoniga jalb qilish hamda "me'yoriy-huquqiy gilyotin" mexanizmini muntazam asosda qo'llash lozim.

#### **XULOSA**

Olib borilgan ilmiy tadqiqot asosida O'zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator tavsiyalar taklif etiladi. Birinchi navbatda, fosh etuvchilarni huquqiy himoya qilish tizimini kuchaytirish zarur. Buning uchun maxsus qonun qabul qilish, ish beruvchiga isbotlash

majburiyatini yuklash, anonim va elektron xabar berish platformalarini yaratish hamda ishdan bo'shatilgan fosh etuvchilarni tiklash mexanizmlarini joriy etish talab etiladi. Ikkinchidan, Moliyaviy shaffoflikni raqamlashtirilgan tizimlar orqali ta'minlash ham muhim yo'nalish hisoblanadi. Xususan, "Ochiq budjet" portalini barcha darajadagi ma'lumotlarni real vaqtda o'z ichiga oluvchi platforma sifatida rivojlantirish, davlat xaridlari bo'yicha tranzaksiyalarni esa Sloveniyaning "Supervisor" tizimiga o'xshash vizualizatsiya formatida ommaga ochish maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tizimini takomillashtirish doirasida ex-ante tekshiruv mexanizmi va avtomatlashtirilgan monitoring tizimini joriy etish, davlat xizmatchilariga amaliy qo'llanmalar va case-study asosidagi treninglar o'tkazish, shuningdek deklaratsiyalashni nafaqat yillik, balki holatga qarab amalga oshirish tartibini belgilash tavsiya etiladi. Normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasini kengaytirish maqsadida parlament a'zolari tomonidan kiritilgan qonun loyihalari ham majburiy ekspertizaga jalb etilishi lozim. Moldova tajribasiga asosan fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan rasmiy hamkorlik o'rnatish va "me'yoriy-huquqiy gilyotin" mexanizmini joriy qilish bu yo'nalishda muhim qadam bo'ladi. Nihoyat, axloqiy me'yorlar va halollik madaniyatini shakllantirish uchun davlat xizmatchilarini muntazam etik treninglardan o'tkazish va OECD Jamoat yaxlitligi bo'yicha tavsiyalariga muvofiq yaxlit halollik strategiyasini ishlab chiqib, amalga oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligi nafaqat jazo choralari, balki profilaktika, shaffoflik, fosh etuvchilarni himoya va jamoatchilik nazoratining uyg'unlashgan tizimiga bog'liqdir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, bu sohadagi muvaffaqiyat institutlar, texnologiyalar va madaniyat uchala elementning birgalikdagi rivojiga bog'liq. O'zbekiston ham ana shu yo'lda izchil va tizimli harakatlanishi orqali davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyani sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Transparency International. (2023). Corruption Perceptions Index 2022. Berlin: Transparency International. <https://www.transparency.org/en/cpi/2022>
2. United Nations. (2003). United Nations Convention Against Corruption (UNCAC). New York: UN Office on Drugs and Crime. <https://www.unodc.org/unodc/en/corruption/uncac.html>
3. Nazarov, S.N. (2021). Davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari. Huquq va hayot jurnali, 3(15), 44–52. Toshkent: TDYuU.
4. World Bank. (2021). Governance and Anti-Corruption: Public Sector Reform in Central Asia. Washington D.C.: World Bank Group. <https://www.worldbank.org/en/topic/governance>
5. Tursunov, B.A. (2022). O'zbekistonda davlat xizmatini modernizatsiya qilish: muammolar va yechimlar. Ijtimoiy-siyosiy fanlar, 2(58), 18–27. Toshkent.
6. Transparency International. (2013). Whistleblowing in Europe: Legal Protections for Whistleblowers in the EU. Berlin: Transparency International, pp. 83–84. <https://www.transparency.org/en/publications/whistleblowing-in-europe-legal-protections-for-whistleblowers-in-the-eu>
7. Commission for the Prevention of Corruption (Slovenia). (2014). Supervisor Platform Overview. <https://www.kpk-rs.si/upload/datoteke/Supervisor%281%29.pdf>
8. STT Lithuania – Special Investigation Service. (2012). Annual Performance Report, pp. 31–33. Vilnius: STT. [http://www.stt.lt/documents/Ataskaita\\_2012\\_EN.pdf](http://www.stt.lt/documents/Ataskaita_2012_EN.pdf)
9. OECD Anti-Corruption Network for Eastern Europe and Central Asia. (2015). Prevention of Corruption in Public Finance Management: Regional Expert Seminar Report. Paris: OECD Publishing. <https://www.oecd.org/corruption/acn/>

10. Muxtarov, A.T. (2019). Manfaatlarni to'qnashuvi: davlat xizmatidagi huquqiy tartibga solish muammolari. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi Ilmiy axborotnomasi, 4(12), 61–70.
11. Albania. (2005). Law No. 9367, dated 07 April 2005, On the Prevention of Conflict of Interest in the Exercise of Public Functions, as amended. Available at: <https://track.unodc.org/uploads/documents/BRI-legal-resources/Albania/>
12. European Commission, Anti-Fraud Knowledge Centre. (2017). PREVENT system. Good practice. Romania. Available at: [https://antifraud-knowledge-centre.ec.europa.eu/library-good-practices-and-case-studies/good-practices/prevent-system\\_en](https://antifraud-knowledge-centre.ec.europa.eu/library-good-practices-and-case-studies/good-practices/prevent-system_en)
13. National Integrity Agency of Romania (ANI). (2024). About ANI. Available at: <https://networkforintegrity.org/continents/europe/national-integrity-agency-ani/>
14. National Integrity Agency of Romania (ANI). (2024). About ANI. Available at: <https://networkforintegrity.org/continents/europe/national-integrity-agency-ani/>
15. Hoppe, T. (2014). Anti-Corruption Assessment of Laws: Comparative Study and Methodology. Regional Anti-Corruption Initiative (RAI). [http://www.rai-see.org/doc/Comparative StudyMethodology on Anticorruption Assessment of Laws.pdf](http://www.rai-see.org/doc/Comparative%20StudyMethodology%20on%20Anticorruption%20Assessment%20of%20Laws.pdf)
16. United Nations Development Programme (UNDP). (n.d.). *Strengthening the corruption prevention and analysis functions of the National Anticorruption Center*. UNDP Moldova. <https://www.md.undp.org/content/moldova/en/home/projects/strengthening-the-corruption-prevention-and-analysis-functions-o.html>
17. OECD. (2014). Armenia Round 3 Monitoring Report – Istanbul Anti-Corruption Action Plan, p. 57. Paris: OECD. <https://www.oecd.org/daf/anti-bribery/Armenia-Round-3-Monitoring-Report-ENG.pdf>

INNOVATIVE  
ACADEMY